

KOUCHING YONDASHUVNI JORIY ETISHNING INNOVATSION DIDAKTIK MODEL VA UNING KOMPONENTLARI

Nurumbekova Ya.A.,

Guliston davlat pedagogika instituti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasini mudiri, dotsent

nurumbekova72@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada kouching yondashuvni joriy etishning innovatsion didaktik modeli va uning komponentlari, kouchetexnologiyalar asosida mutaxassis tayyorlash modeli atroflicha yoritilgan.

Kalit soʻzlar: kouch, kouching, model, komponent, innovatsiya, kouch texnologiya. pedagog, mutaxassis.

Аннотация: В статье подробно описана инновационная дидактическая модель реализации коучингового подхода и ее компонентов, а также модель подготовки специалистов на основе коучинговых технологий.

Ключевые слова: коучинг, тренерская работа, модель, компонент, инновация, технология коучинга. преподаватель, специалист

Abstract: this article provides a detailed description of the innovative didactic model of implementing the coaching approach and its components, a model of training specialists based on coaching technologies.

Keywords: coaching, coaching, model, component, innovation, coaching technology. pedagogue, specialist

Biz oldimizga qanday vazifa qoʻymaylik, qanday muammoni yechish zaruriyati tugʻilmasin, gap oxir-oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolagʻasiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi oʻrnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashimizga bogʻliq. Albatta bugungi kunda, kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda pedagoglarning kouching pozitsiyasi muhim oʻrin tutadi. Zamonaviy bilim berish uchun avvalo, murabbiyning oʻzi ana shunday bilimga ega boʻlishi kerak.

Pedagogika-psixologiya –innovatsion kouching tizimi asosida oʻquv jarayonini takomillashtirish, shaxsni rivojlantirish, oliy tizimda talaba va magistrlarda kouching kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik modelini ishlab chiqish tadqiqot ishimizning asosiy ilmiy konsepsiyasi hisoblanadi. Ushbu model komponentlari quyidagicha:

“Innovatsion kouching yondashuv” - muammolar va vazifalarni yechish imkonini beruvchi, innovatsion kouching instrumentlari, texnikasi va metodlari va usullari, tamoyillari majmuini tushuntiruvchi yangicha kategoriyalar umumlashmasi hisoblanadi. Innovatsion kouching yondashuv taʼlim mazmuniga, taʼlim texnologiyalari, talaba va magistrnlarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda, pedagogik jarayonni boshqarishni rivojlantirish, taʼlimning barcha subʼektlarida tizimlashtirilgan bilish motivlari, taʼlim olish ichki ehtiyojga aylanishi, ijodiy tafakkurning asosiy boshlovchiligi evaziga taʼlim sifatini oshishiga hissa qoʻshadi.

“Innovatsion kouching yondashuvning mohiyati shundan iboratki, subʼektning yosh davrlari bosqichlarida, uning individual, shaxsiy va subʼektiv-faoliyatli tavsifi birgalikda oʻrganiladi, subʼektning yaxlitligini tiklash, yuqori darajaga erishishi uchun taʼsir qilish va kompleks tadqiqot olib borishni Kouching kompetensiyasini rivojlantirishga yoʻnalganlik – shaxsning istiqbolli rivojlanishi


(shuningdek, kasbiy), maksimal kasb faoliyati doirasida va hayot faoliyatida ijodiy o'zini-o'zi namoyish qilishni yunaltiruvchi shaxsning umumiy yo'nalganligi, sifat xarakteristikasidir[1].

Shaxsning yunaltirilganligi - bu integrativ sifat bo'lib, u o'z ichiga shaxsning faolligini va uning vektorining asosini aniqlovchi maqsad, qadriyatlar, motivlar, intilishlar va boshqalarni qamrab oladi.

Kouchingga yo‘nalganlik – bu kasb sohasida ham, hayot faoliyati sohasida ham maksimal ijodiy o‘zini bor potentsiali ichki imkoniyatini namoyon qilishga, insonni ilg‘or rivojlanishga yunaltiruvchi shaxsning umumiy yunaltirilganligining sifatiy tavsifidir.

Kouchingga yunaltirilganlikning o'ziga xos mazmuni bo'lajak mutaxassislarni o'z kasbiy pedagogik faoliyatlarini amalga oshirishni mo'ljallashdan iborat.

Kouchinga yoʻnalganligining mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda uning tashkil etuvchi komponentlari quyidagicha:



1-rasm. Kasbiy pedagogik faoliyatga kouching yondashuvni joriy etishning innovatsion didaktik modeli.

kasb pedagogik yunalishining asosiy mohiyati-tanlagan kasbning asl mohiyatini chuqur anglab yetish zarurligi bilan bog'liq;

-kasbiy-muhimlik-shaxs rivojlanishida kasbiy yo'nalganlik, tayyorgarlik darajasining muhimligi bilan bog'liq; o'z ichiga oladi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida innovatsion kouching yondashuvi kasbiy pedagogik faoliyatda kouching kompetensiyasini rivojlantirish yo'nalganlikni hosil qiladi[2].

-kasbiy maqsadga yo'nalganlik-kasbiy pedagogik faoliyat uchun aniq maqsadlar belgilab olinganligi, kelgusi kasbiy pedagogik maqsadga yo'nalganlik darajasining yuqoriligi muhim o'rin tutadi;

-kasbiy pedagogik motivatsiya-kasbni egallash, munosib kasb egasi bo'lishga erishish motivatsiyasi hosil qilinishi muhim ahamiyatga ega;

-kasbiy pedagogik kreativlik-kasbiy ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish;

-kasbiy pedagogik muvaffaqiyatga intilish-kasbiy pedagogik muvaffaqiyatga erisha olish uchun o'zini-o'ziga, kelajakka ishonch tuyg'usini hosil qilish orqali, muvaffaqiyatga intilishni shakllantirish muhim[3].

Ushbu bandeda ishlab chiqilgan model oliy ta'limda talab va magistrnlarni innovatsion kouching yondashuv asosida kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash imkonini beradi. Bu yerda kouching yondashuv bevosita kouchingga yo'nalganlik bilan bog'liq bo'lib, u quyidagilarga asoslanadi:

-Mohiyat - kasb mohiyati, hayot turmush yashashning mohiyati, har bir ish (mehnat)ning, kasbiy faoliyat mohiyatini anglab yetish, u uchun pedagogik kasbda nima muhim, pedagogik faoliyatda kouch rolini bajarish qanchalik muhim ekanligini anglashi, his etishi;

-Motivatsiya-hayotga yashashga qiziqish hosil qilish, kasbiy motivatsiyaga erishish, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy pedagogik faoliyatda kouch rolini shakllantirish, ular shaxsining tarkib topishi, kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorgarligiga ta'sir qiladigan kuchli ijtimoiy omil kouching motivatsiyadir;

-Kreativlik – insonning fikrlashida, hissiyotida, muloqotda, faoliyatning alohida turlarida namoyon bo'luvchi ijodiy imkoniyati, qobiliyati, shaxsni bir butunlikda yoki uning alohida tomonlarini, faoliyati hosilasini, uni yaratish jarayonini xarakterlaydi. Individdning nostandart qarorni qabul qiluvchi ichki xususiyatini aks ettiruvchi qobiliyat [4].

- Muvaffaqiyat – kompetentli kouch-pedagog-murabbiy bo'lish, biror ish ustidan g'alabaga erishish, ishni samarali bajara olish. Kasbiy bilimlarni egallash jarayonida yanada yuksakroq yutuqlarga erishishdir.

Tadqiqotlarimizda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirish maqsadida, pedagogik faoliyatga yangilik kiritish, ta'lim mazmuni va o'qitish texnologiyasiga o'zgartirish kiritish, kouching yondashuv asosida kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorgarlikni tashkil etish shakl va metodlarini, zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarini qo'llashning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini yaratgan holda, kouching kompetensiyalarini rivojlantirgan yo'naltirilgan o'qitish bilan pedagogik innovatsiyani amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Kouchtexnologiyalari asosida tarbiyalash, bo'lajak mutaxassislarda o'z-o'ziga ishoch, bor ichki imkoniyatlariga ishoch, jamiyatga, o'z yurtiga, mehnatga, boshqa insonlarga bo'lgan munosabatlari, milliy g'oya va mafkura, iftixor tuyg'ulari, komil

inson sifati shakllantiriladi. O'zini-o'zi rivojlantirish va o'zini-o'zi boshqarish asosida insonning yangi muvaffaqiyatlarga erishish ehtiyoji, takomillashish, faol hayot tarafdori bo'lish, ezgu fikrlash o'z imkoniyatlariga ishonish, hayot mazmunini tushunishi yotadi.

Tadqiqotda taklif etilgan ma'naviy-axloqiy tarbiya – bu millat va jamiyat tomonidan yaratilgan barcha ruhiy va aqliy ne'matlarni shaxs tomonidan o'zlashtirilib, undan foydalangan holda o'z axloqini barkamollashtirishga erisha olish darajasini ko'rsatuvchi mezon bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Anarmatovna, Y. N. (2023). Coaching Skills Improvement System for Future Educator Psychologists. American Journal of Science on Integration and Human Development (2993-2750), 1(10), 82-87.
2. Nurumbekova, Y. (2023). THE TYPES AND MAIN PRINCIPLES OF COACHING. Science and innovation, 2(B2), 243-247.
3. Anarmatovna, N. Y., & Ummatkulovna, X. Z. (2022). IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL-SPIRITUAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1832-1838.
4. Nurumbekova, Y. (2020). Improving the system of spiritual and moral-spiritual training of future teachers. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(9), 411-418.